

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY SCIENCE



OUR INDEXING



 <http://mjstjournal.com>

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY SCIENCE



VOLUME 2 **ISSUE 5**



 <http://mjstjournal.com>

International conference on multidisciplinary science

VOLUME-2, ISSUE-5

Editor in Chief

Dr. Rajeet Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)


Prof.Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology(IIST)

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY SCIENCE

[Prof. Yogesh C. Sharma](#) - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES,
Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

[Professor Indra Mani Mishra](#) -Indian Institute of Technology
(Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

[Eshkaraev Sadridin Chorievich](#) - associate professor of the Department
of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy
Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru



**CENTER FOR TECH
AND MEDIA RESEARCH**

СУРУНКАЛИ ТОНЗИЛИТНИ ЁШ БОЛАЛАРДА ТАШХИСОТИ**Бўриева Дилноз Бахриддиновна**

Термиз иқтисодиёт ва сервис университетини

Тиббиёт фанлар кафедраси ўқитувчиси

e-mail: buriyevadilnoz29@gmail.com

Аннотация: Бу мақолада ёш болаларда сурункали тонзилитни клиник кечиши, касалликни асоратлари, даволаш принциплари келтирилган. Айниқса сурункали тонзилит болалар орасида бу касаллик 16,8%ни ташкил қилади. Тадқиқотимизда касаллик қиз болаларда куп 68% ни ташкил этди. Касалликни ёш болаларда комплекс даволашда Тонзилгон ва Иммудон дори воситасини қўллаш ижобий самарасини берган.

Калит сўзлар: Болалар, сурункали тонзилит, ташхисот, пневмония, бронхит, ногиронлик.

ДИАГНОСТИКА ХРОНИЧЕСКОГО ТОНЗИЛЛИТА У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА**Буриева Дилноз Бахриддиновна****Термезский университет экономики и сервиса****Преподаватель кафедры медицинских наук**

Аннотация: В данной статье описано клиническое течение хронического тонзиллита у детей раннего возраста, осложнения заболевания, методы лечения. Особенно среди детей с хроническим тонзиллитом это заболевание составляет 16,8%. В нашем исследовании на это заболевание приходилось 68% случаев удушья у девочек. Применение препаратов Тонзилгон и Иммудон при лечении гонореи у детей раннего возраста дало положительный эффект.

Ключевые слова: дети, хронический тонзиллит, диагностика, пневмония, бронхит, инвалидность.

DIAGNOSIS OF CHRONIC TONSILLITIS IN YOUNG CHILDREN**Borieva Dilnoz Bakhriddinovna****Termiz University of Economics and Service****Teacher of the Department of Medical Sciences**

Annotation: This article describes the clinical course of chronic tonsillitis in young children, complications of the disease, treatment printsips. Especially among children with chronic tonsillitis, this disease accounts for 16,8%. In our study, the disease accounted for 68% of choke in girls. The use of Tonzilgon and Immudon drugs in the treatment of gonorrhoea in young children has given a positive effect.

Keywords: Children, chronic tonsillitis, diagnosis, pneumonia, bronchitis, disability.

Муаммонинг долзарблиги: Ўзбекистон Республикасида ёш болалар орасида сурункали тонзилит касаллигини мавжудлиги, унинг салбий оқибатлари жиддий муаммо бўлиб қолмоқда. Сурункали тонзилит болалар орасида жиддий умумбиологик муаммо бўлиб, ногиронлигга олиб келиши эҳтимоли ортиб ижтимоий аҳамият даражасига кўтарилмоқда.

ЖССТ маълумотларга кўра, сурункали тонзиллит билан Ўзбекистон аҳолисининг ўртача 16% касалланади. Вирус-бактериал инфекцияни қўшилиб келиши, бир неча касалликни қўшилиб келишига сабаб бўлади. Болалар орасида бу касаллик 16,8%ни ташкил қилади [1].

Ҳозирги кунда сурункали тонзилитни даволашда танглай муртаklarининг функциясини меъёрлашишига уни сақлаб қолишга қаратилган даволаш усуллари кенг қўлланилмоқда [2,3,4].

Жаҳон адабиётларида сурункали тонзилитни, барча ички аъзоларга, жумладан юрак-қон томир, асаб, эндокрин ва бошқа тизимларига таъсири кенг ёритилган. Лекин бу касалликни жинсий тизимга, ўсиш ва ривожланишга таъсири кам ўрганилган, айниқса балоғат ёшидаги қизларга таъсири ҳақида адабиётларда маълумот деярли йўқ, гарчи сурункали тонзилит билан касалланган ҳамма ўспиринларда иккиламчи жинсий белгиларни шаклланишининг кечикиши, бўй ва вазнинг камлиги кузатилган. Бу муаммони ҳал этиш келажакда оналарни соғлом бўлишида катта аҳамиятга эга.

Сурункали тонзилит умумий инфекцион аллергик касаллик бўлиб, бодомча безларининг сурункали яллиғланиши билан кечадиган касалликдир. Сурункали тонзилит юқори нафас йўллари касалликлари ичида энг кўп тарқалгани бўлиб, Республикамизда аҳолининг 16%ида қайд этилади, катталарда 4-10%, болаларда 12-15% учрайди. [5].

Тадқиқот мақсади: Сурункали тонзилит билан оғриган ёш болаларда касалликни ташхисоти ва даволаш самарадорлигини баҳолаш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Тадқиқот 2020-2023-йиллар давомида Сурхондарё вилояти болалар кўп тармоқли касалликлари шифохонасида сурункали тонзилит ташхиси билан даволанган 100 нафар беморларни касаллик тарихлари ретроспектив таҳлиллар асосида ўрганиб борилди. Ушбу иш жараёнида беморлардан эпидемиологик, клиник, лаборатор (бактериологик, серологик), инструментал диагностика текширувлари қўлланилган. Текширувмиздаги беморларда жинс фарқ кузатилди. Қиз болалар 68 (68%) нафарни, ўғил болалар 32 нафар (32%) ташкил этди. Сурункали тонзилит билан касалланиш 2:1 нисбатда ўчради.

Тадқиқот натижалари: Беморларни ёш бўйича гуруҳчаларга бўлиб олдик. 1-гуруҳча- 1-3 ёшгача бўлган болалар 59 нафар, 2-гуруҳча- 3-5 ёшгача бўлган болалар 41 нафарни ташкил этди. Бундан ташқари, беморларнинг сурункали тонзилитнинг классификацияси бўйича гуруҳларга ажратилганда шуниси маълум бўлдики, 1 гуруҳчада 28 нафар беморда сурункали тонзилит оддий шакли, 16 нафар беморда сурункали тонзилит токсико - аллергик шакли I-даража, 9 нафар беморда сурункали тонзилит токсико - аллергик шакли II-даража, 6 нафар беморда сурункали тонзилит йирингли шакли учради,

2 гуруҳда эса 21 нафар беморда сурункали тонзилит оддий шакли, 9 нафар беморда сурункали тонзилит токсико -аллергик шакли I-даража, 8 нафар беморда сурункали тонзилит токсико -аллергик шакли II-даража, 3 нафар беморда сурункали тонзилит йирингли шакли учради учради. Барча текширилаётган беморлардан анамнез йиғилганда ҳамроҳ касалликларнинг мавжудлиги ҳам таҳлил қилинди. Унга кўра, 1-гуруҳча беморларда камқонлик – 48 нафар беморда, бронхит – 6 нафар беморда, ларингит – 5 нафар беморда, пневмония – 8 нафар беморда учради.

2 гуруҳча беморларда эса камқонлик– 37 нафар беморда, тиш кариес – 3 нафар беморда, бронхит –4 нафар беморда, пневмония – 4 нафар беморда учради. Кузатувмиздаги беморларга керакли даво муолажалари бажарилган бўлиб,

Умумий давоси.

а) гипосенсибилизация воситалари. Кальций хлорид 1% (7 -10 мл/кг) в/и томчилаб, аскорбин кислоталар, антигистамин дори воситалари -диазолин, супрастин.

б) организмнинг табиий химоя кучини ошириш-кун тартибига риоя қилиш, С, В витаминларга бой таомларни истеъмол қилиш, жисмоний тарбия билан шуғулланиш, кон кўпайтирувчи темир сақловчи дори воситалар тавсия қилинади.в) иммунитетни тиклаш, иммуностимуляторлар (левомизол, Т активин, продигиозан, темалин ва хоказо) табиий иммуностимуляторлар (женьшень, левзия, эхиноция, ромашка, чеснок, прополис, пантокрин). Иммудон дори воситасини бир кунда 2 таблеткадан 3 махал, 20 кун давомида тавсия этилган.Тонзилгон драже ёки эритма шаклида болаларда 1 драже ёки 15 томчидан, бир ёшгача 5 томчидан кунига 5 -6 махал тавсия этилади) антибиотиклар - пенициллин гуруҳидаги антибиотиклар тавсия этилади. Факат дизбактериозга профилактика қилган холда 50 йиллардан бери юқориги нафас йўллари касалликларида макролидлар юқори самара бермоқда. Макролидларнинг ишлатилиши антибиотиклар орасида учинчи ўринда туради. Тонзиллитнинг давосида макролид антибиотиклар билан рақобатлашади. Сурункали тонзилит касаллиги узоқ вақт давомида даволанмаслиги сабабли, оғир ревматик касалликларга (ревматизм, юқумли полиартрит, системали қизил бўрича) сурункали пиелонефрит, анемия, рахит, гипотрофияга сабаб бўлади.

Шундай қилиб, илмий текширувларимиз натижалари бизга сурункали тонзиллитнинг бошқа касалликлар билан бевосита узвий боғлиқ эканлигини ва айнан сурункали тонзиллитдан сўнг юқорида кўрсатилган касалликларнинг келиб чиққанлиги аниқланади.

Хулоса: қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, ёш болаларда сурункали тонзиллитни эрта ташхислаш ва комплекс даволаш чораларини ўтказиш ушбу болаларда ўз вақтида балоғатга етишига, организмнинг иммун ҳолатини тикланишига, сурункали тонзиллитнинг қайталанишини камайишига, ҳамда беморларнинг ҳолатини яхшиланишига олиб келади.

Сурункали тонзиллит билан касалланган ёш болаларда комплекс даволашда Тонзилгон ва Иммудон дори воситасини қўллаш даволаш самарасини берган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Косяков С.Я., Лоранская И.Д., Анготоева И.Б., Мулдашева А.А. Особенности диагностического обследования и лечения хронического тонзиллита у пациентов на фоне ларингофарингеального рефлюкса . Лечащий врач, 2016.-N 6.-С.89-91.

2.Кунельская Н.Л., Скрыбина Л.Ю.Хронический тонзиллит у студентов гуманитарного вуза: частота встречаемости, диагностика и лечебная тактика. Вестник оториноларингологии, 2013.-N 3.-С.48-51

3. Карпищенко С.А., Колесникова О.М. Хронический тонзиллит: представление о микробном пейзаже небных миндалин . Фарматека, 2015.-N 4.-С.13-17.

4. Начаров П., Рязанцев С. Этиологическая и патогенетическая диагностика хронического тонзиллита . Врач, 2018.-N 3.-С.26-29.

5.Карабаев Х.Э., Алимжоновна К.Х. «Балоғат ёшидаги қизларда сурункали тонзиллитни комплекс даволашни такомиллаштириш». Ўзбекистон стоматологлар ассоциацияси «Stomatologiya»-илмий-амалий журнал. ТТА – 2019.

The content of teaching using computer technologies in conducting independent work in engineering and computer graphics

Khusnidinova Nozima Ashurovna

Bukhara Institute of Engineering Technology

E-mail: nozimahusnidinova7@gmail.com

***Abstract.** Until now, attention has been focused on teaching in the education system, but now, in the era of computer technologies, it is necessary to focus on increasing the content of teaching and enriching it with news using several programs. For this reason, the shortcomings of the work carried out in the field of teaching in higher educational institutions of higher educational institutions based on the method of mutual comparison of engineering computer graphics science programs were studied.*

***Key words:** "Computer technologies", "educational technologies", "computer modeling", "multimedia".*

Introduction:

Until now, education has been considered a priority in the existing education system, but at the same time, it is the period of informationization of society. Modern pedagogic personnel should be focused on organizing students' independent learning activities on the basis of modern technologies, independent acquisition of knowledge and formation of skills for their practical application. For such purposes, the teacher should choose the methods and technologies of teaching in such a way that they should enable students not only to acquire ready-made knowledge, but also to acquire knowledge independently from various sources, to form a personal point of view, to justify it, and to use the acquired knowledge to acquire new knowledge.

Analysis and results: Although the acquisition of knowledge is considered an important factor that develops thinking, but any acquisition or acquisition of knowledge does not have a developing effect on the student's thinking. For this, it is necessary to activate knowledge and forms of activity. Simple retelling of acquired knowledge will not be enough to develop students' thinking. Active cognition, independent thinking activity is very necessary. The activity of independent acquisition of knowledge and the process of applying the acquired knowledge become the formation of new knowledge and the source of effective thinking of the student.

According to L.N. Anisimova, it is necessary to use computer technologies and interactive lectures and an innovative approach based on independent learning to successfully form students' professional competences and graphic preparation. One of the conditions for successful training of students in the field of "engineering computer graphics" is to organize their independent education. This process is aimed at mastering and strengthening the learning material by students. The most important advantage of computer graphics as an intensive technology is that it has the possibility of a variable and individual approach to the organization of classes in order to demonstrate the independent creative activity of students, to overcome stereotypes and inertia of thinking.

Taking into account the above, if independent education is an activity, independent work can also be considered a type of activity. We believe that the proper organization and control of students' independent learning is an effective means of achieving the tasks of the taught subject.

Because today half of the time allotted for each subject should be devoted to independent education

Carrying out independent education using computer programs increases the effectiveness of the course content. There are several computer programs, among which the Solid Works program with its capabilities has several conveniences and opportunities for students to explain science:

3D CAD Design: Allows users to create, simulate, publish and manage 3D models. SolidWorks is known for its user-friendly interface and powerful tools for all aspects of product development.

Simulation: Provides tools to simulate physical behavior such as kinematics, dynamics, stress, deflection, vibration, temperature or fluid flow to improve product performance.

Data Management: SolidWorks offers PDM (Product Data Management) solutions that help manage project data, facilitate collaboration, and increase productivity by tracking all changes to design data.

Electrical Design: Includes tools for designing and integrating electrical systems into 3D models, such as wiring harnesses and printed circuit boards.

Technical Communication: Creates 3D product documentation and visualizations to assist in the creation of manuals, assembly instructions and marketing materials.

Collaborative environment: MySolidWorks, a collaborative space, connects SolidWorks users and provides access to a wealth of resources, tutorials, and an online community.

For example, in Europe, the USA and Japan, students' hours of independent study make up 50-60% of the total study hours.

I. Kovalevsky distinguishes two types of independent work:

- works performed in the auditorium (independent work is performed under the direct supervision of the teacher and on his/her assignment during the training sessions);
- work performed outside the classroom (independent work is performed on the teacher's assignment, but without his direct participation)

Based on the above information, it is possible to state the nature of independent work of engineering computer graphics students and the issue of their organization.

We believe that it is appropriate to organize independent education in this way. Students' independent tasks in science should be structured in such a way that they should be encouraged to think freely and creatively during the performance of the given task.

Conclusion: Based on the above information, the organization of independent education based on Solid Works, Auto CAD, and 3D Max technology creates the basis for a student's creative approach to the task.

REFERENCES

1. “Raqobatbardos h kadrlar tayyorlashda fan – ta’lim – ishlab chiqarish integratsiyasini takomillashtirish istiqbollari” Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023-yil 22-noyabr (634-638)
2. Хмарова Л.И., Усманова Е.А. Применение компьютерных технологий при изучении графических дисциплин. Теория и методика профессионального образования. Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогическая наука». 2014, том 6. – № 2. – С 59-63.

3. Анисимова, Л.Н. Инновационный подход к профессионально-графической подготовке будущих учителей технологий и предпринимательства / Л. Н. Анисимова // Вестник МГОУ. – 2014. – № 1. -С. 13–20.
4. Высшее образование (словарь). – Т.: Маля, 2003. – 456 с.
5. Ковалевский И. Организация самостоятельной студенческой работы // Высшее образование в России. - Москва, 2000. - № 1. – С.114–115.
6. Umedulayevna, S. S. (2023). Didactic Principles of Teaching Constructive Design Tasks in Drawing Lessons. *Miasto Przyszłości*, 35, 430-432.
7. Umedulayevna, S. S. (2023). Methods and Technologies for Using Constructive Design Issues in Drawing Lessons. *Miasto Przyszłości*, 35, 433-436.
8. Umidullayevna, S. S. (2023, May). THE USE OF STRUCTURAL DESIGN ISSUES IN THE ORGANIZATION OF THE DRAWING EDUCATIONAL PROCESS. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 244-247).
9. Laue S., Abdullaev S. S. Legends and True Stories about the Samanid Mausoleum //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 308-311.
10. Abdullayev¹ S. F., Abdullayev S. S. TRANSLATION OF CULTURAL VALUES IN THE ARTISTIC HERITAGE OF TRADITIONAL APPLIED ARTS OF BUKHARA.
11. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
12. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-53.
13. Sayfullayevich A. S. CHALLENGES OF TRAINING FINE ARTS TEACHERS IN THE PRESENT //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – С. 348-353.
14. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.
15. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-39.
16. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – С. 9671–9678-9671–9678.
17. Aminov, A. S., Mamurova, D. I., & Shukurov, A. R. (2021, February). Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance. In *E-Conference globe* (pp. 34-37).
18. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 17-22.
19. Mamurova D., Khusnidinova N. Didactic possibilities of using computer graphics programs in the educational process //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 84. – С. 02020.
20. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the key-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 335-338.

CHOOSING INTERESTING AND MEANINGFUL TOPICS IN THE TEACHING OF VISUAL ARTS, AWAKENING STUDENTS' INTEREST IN VISUAL ARTS

Shomurodov Oybek

Bukhara State University, associate professor

Karimov Bekhroj

Bukhara State University, student

Annotation. This article fully describes the methods of using modern pedagogical technologies in the organization of fine art classes, the application of pedagogical renewal processes in educational practice, the issue of pedagogical technologies in teaching fine arts at school.

Key words: fine arts, pedagogical technologies, renewal, thematic composition.

It is known that the driving force of man and his society is human thinking. Thinking is a complex of intelligence and worldly knowledge.

Among all stages, we must know that there are many tasks in terms of qualities, such as being able to correctly understand and explain the aspects of interaction with the educational process of fine art, applied art, architecture, sculpture.

We all know that the rapid penetration of foreign experiences into the educational system of our country, new educational concepts (global education, child-friendly attitude, exclusive educational pedagogical technologies, etc.) have aroused unprecedented interest among teachers, experts in methodology, pedagogy, educational psychology. Innovations in the field of education have not been able to create the same treatment for all teachers. Our observations show that young teachers are concerned about their professional future, and some older teachers (approaching retirement age) are apathetic.

The implementation of the renewal processes in pedagogy in educational practice is one of the complex, multifaceted problems and has its own characteristics. Education is a social system that applies to all components of the educational process. In this, the activity of the student and the teacher, the purpose, content, method, form, result, conditions, technologies and management of the process are effectively affected.

Multifaceted problems that enter educational practice indirectly, that is, teacher skills through didactic tools, educational technologies. Implementation of computer and information communication technologies, thus equipping all teachers with computer literacy and information communication technologies skills. In addition to strengthening professional skills, in accordance with the above-mentioned instructions, it is necessary to pay attention to the following in order to increase the effectiveness of visual art classes and increase students' interest in science.

Choosing interesting and meaningful topics in the teaching of visual arts will increase students' interest in visual arts. Currently, students in schools are not limited to using drawing books, paints, pencils, pencils and erasers, but using modern, foreign technologies, several types of paints, colored pencils, and various drawing tools that increase the brightness of decorative works can be used. It activates students' artistic activity with such objects. It arouses interest in art.

In the field of education, it is necessary to study a specific didactic process in order to use pedagogical technology in the teaching of visual arts and to achieve its effectiveness. Until now, there has not been any more systematic scientific work or methodical-didactic manual published on the issue of pedagogical technology in teaching visual arts at school. Therefore, in thinking about this issue, we found it necessary to study the issue more widely and analyze the issue of technology, pedagogical technology, and then the use of pedagogical technology in the teaching of visual arts.

It is known that visual arts classes are carried out in five types of classes or technologies:

1. Drawing based on the object.
2. Work on the thematic composition.
3. Decorative applied art.
4. Sculpture works.
5. Classes are conducted on the basis of art studies.

Although the technology of these classes has the same content, the teaching technology in them is definitely different from each other. That is, in the classes "drawing a picture by looking at the object itself", it is depicted from nature, seeing the object itself, as far as the form is possible.

In the thematic composition, students think, look into the distance, and draw a picture on the basis of remembering something.

In sculpting, the basis of the training is the technology of physical labor, not with pencils and paints, but with clay and plasticine. Therefore, it is necessary to pay special attention to the definition of pedagogical technologies in visual art classes and their classification into "Lesson technology" types.

Pedagogical technology of fine art is a pedagogical process that can guarantee the achievement of a predetermined goal and the fulfillment of this task based on the tools of a fine art teacher to provide students with art knowledge and skills in a certain period and conditions. That is, it is a pedagogical process that provides guaranteed results on the basis of a set of didactic, methodical and methodological processes of using educational and training tools to achieve the set and intended goal of the teacher's 45 minutes of the lesson.

REFERENCES:

1. Н.Н. Ростовцев, С.Е. Игнатъев, Е.В. Шорохов. "Рисунок. Живопись. Композиция" Москва просвещение-1989.
2. Б.Тожиев, Н.Орипова. "Рангтасвир ва композиция дастури" II-курс Тошкент-1995.
3. Г.Абдурахмонов "Рангтасвир ва композициядан методик тавсиялар". I-курс. Тошкент-1995.
4. Ботиров, Д. С., Шомуродов, О. Н., & Ширинов, А. Л. (2021). МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *European science*, (2 (58)), 101-103.
5. Shomurodov O. N. Perception and depiction of basic color relationships in painting performance //World Bulletin of Social Sciences. – 2021. – Т. 4. – №. 11. – С. 62-65.
6. Shomurodov O. N. HAYKALTAROSHLIK TASVIRIY SAN'ATNING TURI SIFATIDA //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 51-57.
7. Шомуродов О. Н., Авезов Ш. Н. Компьютерные технологии обучения //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 51-54.

8. Ширинов А. Л., Батиров Д. С., Шомуродов О. Н. Важность цветоведения в изобразительном искусстве //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 5 (64). – С. 83-85.
9. Аминов А. Ш. и др. Проблемы организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 77-79.
10. Маматов Д. Қ. и др. Знание художника и новые подходы к подготовке молодых специалистов-учителей рисования, разработка уроков художественной графике //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 832-837.
11. Mamatov D. K. The importance of teaching architecture drawing in secondary schools //E-Conference Globe. – 2021. – С. 102-104.
12. Абдуллаев, Сухроб Сайфуллаевич. "ЭСТЕТИКА ЦВЕТА В ВОСПИТАНИИ ПЛАСТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ АРХИТЕКТОРА." *PEDAGOGS journali* 1.1 (2022): 384-386.
13. Абдуллаев С. С., Шарипов Ш. Ш. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА //XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 80-85.
14. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
15. Laue S., Abdullaev S. S. Legends and True Stories about the Samanid Mausoleum //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 308-311.
16. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol, 27(2)*.
17. Abdullayev¹ S. F., Abdullayev S. S. TRANSLATION OF CULTURAL VALUES IN THE ARTISTIC HERITAGE OF TRADITIONAL APPLIED ARTS OF BUKHARA.
18. Абдуллаев С. С. РОЛЬ СРЕДНЕВЕКОВОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВОСТОКА В СОЗДАНИИ СЮЖЕТОВ МИНИАТЮРЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ //Inter education & global study. – 2023. – №. 2. – С. 100-108.
19. Jurayevich J. K., Sayfullayevich A. S. THE UNIQUE OF BUKHARA JEWS IN THE DYE INDUSTRY AND WEAVING CRAFT //Euro-Asia Conferences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 48-53.
20. Sayfullayevich A. S. CHALLENGES OF TRAINING FINE ARTS TEACHERS IN THE PRESENT //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – С. 348-353.
21. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10019.
22. Pirnazarov G. F., Mamurova F. I., Mamurova D. I. Calculation of Flat Ram by the Method of Displacement //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-39.

23. Olimov S. S., Mamurova D. I. Directions For Improving Teaching Methods //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – C. 9671–9678-9671–9678.
24. Aminov, A. S., Mamurova, D. I., & Shukurov, A. R. (2021, February). Additional and didactic game technologies on the topic of local appearance. In *E-Conference globe* (pp. 34-37).
25. Olimov S. S., Mamurova D. I. Information Technology in Education //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 17-22.
26. Mamurova D., Khusnidinova N. Didactic possibilities of using computer graphics programs in the educational process //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 84. – C. 02020.
27. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. The importance of using the keys-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 335-338.
28. Ibadullayeva S. “MANZARA JANRIDA IJOD QILGAN RASSOMLAR ASARIDAN NUSXA KO‘CHIRISH” MODULINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.
29. Ilkhamovna I. S. DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES IN FINE ARTS LESSONS //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 104-107.
30. Ilkhamovna I. S. THE ESSENCE AND THEORETICAL BASIS OF THE CONCEPT OF CREATIVE ABILITY //Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III. – 2023. – C. 69-71.
31. Oyidinov N. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. -Toshkent; O‘qituvchi, 1997.
32. Nabiyev M. Rangshunoslik.–Toshkent; O‘qituvchi, 1995.
33. Bulatov S. Amaliy san’at qisqacha lug’ati.–Toshkent: HBM, 1992.

**TALABALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA
SHARQ ALLOMALARINING ASARLARIGA NAZAR****Temir Hasanovich Olimov**

Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Umida Kamolovna Kurbanova

Osiyo Xalqaro universiteti pedagogika-psixologiya yo‘nalishi magistranti.

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan shaxs insonparvarligini tarbiyalovchi faoliyatni rivojlantirish, yuksak aql-zakovat egasi bo‘lib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg‘ulari bilan yashash, axlokiy-huquqiy burchni, mas’uliyatni teran anglashi lozimligi va sharq allomalarining asarlari orqali buni anglashning mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yuksak, aql-zakovat, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor, yashash, axlokiy-huquqiy burch, mas’uliyat.

Vatan tuyg‘usi haqida gapirar ekanmiz, avvalo uning insonda mavjud psixologik his-tuyg‘u ekanini alohida ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Vatan tushunchasini pedagogik nuqtai-nazardan o‘rganganda esa insonda mavjud bo‘lgan bilish faoliyatining umumiylikdan xususiylikka tomon boradigan fikr yuritish nuqtai nazaridan yondashmoq lozim: demak, vatanning umumiy tushuncha ekani - bu insoniyat uchun yer kurrasining o‘ziga makon etgani bo‘lsa; millatning paydo bo‘lishi va qaysi millat qaerni vatan deb bilgani esa bilishning xususiylik tomon boradigan yo‘lidir.

Vatanparvarlik - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikning asosiy tamoyillaridan biridir. «Vatan» arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «ona-yurt» degan ma’noni anglatadi. Vatanga muhabbat, yurtga muhabbat har bir millat kishisiga xos bo‘lgan muqaddas va ulug‘ qadriyatdir. Vatanparvarlik har bir kishida o‘z uyiga, tug‘ilib o‘sgan yeriga, ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Vatanparvarlik - bu umuminsoniy qadriyat bo‘lib, har bir kishining Vatanga bo‘lgan sodiqligini, sadoqatini ifodalaydi.

Oliy ta’lim tizimi talabalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Sharq durdonalaridan Kaykovusning «Qobusnoma» asari muhim o‘rin tutadi.

Sharq olamida ilmiy-tarbiyaviy va pedagogik tomondan kitobxonlar diqqatini jalb qilgan muhim asarlardan biri Kayqovusning 1082-1083 melodiy, 175 hijriy yillarda yaratilgan «Qobusnoma» asaridir. Kayqovus bu asarni o‘g‘li Gilonshoxga bag‘ishlaydi.

«Qobusnoma» asarida ota-ona haqida aytilgan hikmatlar zamirida Vatanga bo‘lgan muhabbat mujassamdir. Bu asar oradan necha yillar o‘tsa hamki, xuddi kechagina yozilganday o‘zining tarbiyaviy qiymatini yo‘qotmagan.

Vatan, vatanparvarlik, vatanga e’tiqod so‘zlari doimo biri-ikkinchisini to‘ldirishi, ifodalashini inobatga olib, “vatanparvarlik” tushunchasining mazmuni, mohiyatini tushunib olish lozim. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da vatanparvarlik - kishilarning ona-yurtiga, o‘z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va

mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

A.Erkaevning "Ma'naviyat millat nishoni" kitobida vatanparvarlik tuyg'usi haqida quyidagicha fikr bildirib o'tiladi:—"vatanparvarlik"-eng avvalo, mustaqillikni mustahkamlashga ijobiy hissiy munosabatdir. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari talabalariga vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ulkan va boy merosimizdan, jumladan, «Muhammad payg'ambar qissasi», «Hadislar»dan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda yuksak nafosat va mangu hikmat obidasi bo'lgan «Kalila va Dimna» asarining ahamiyati ham juda kattadir.

Eng qadimiy madaniyat beshigi bo'lgan mamlakatdan biri Hindistonda melodning I asrlaridayoq vujudga kelgan «Ramayana», «Mahabhorat», «Qural», «Megaduda», «Raxuvansha», «Qumarasambxava», «Dashakumacharita», Panchataitra», «Xitopadesha», «Shakuntala», «Malyavika va Agnimtra», «Mudrarakshayasa» kabi mashhur va ma'lum asarlar qatorida yaratilgan «Kalila va Dimna»da vatanparvarlikka undovchi qimmatli epizodlar talaygina.

III-IV asrlarda yaratilgan bu qadimiy adabiy yodgorlik o'sha davrning saviyasiga va sharoitlari taqozo qilingan ba'zi g'oyaviy mahdudlik hamda ziddiyatlarga qaramay, uning asosida yotgan ilg'or fikrlar katta ahamiyatga egadir. «Kalila va dimna» dagi hikoyalar hayvonlar tilidan olib borilsada, ijtimoiy hayot, odamlar orasidagi munosabat ko'zda tutiladi.

O'z davrining haqiqiy manzarasini aks ettirgan bu asardan shunday xulosa chiqadi: «Xo'jayin va qirol, shox va qul bor joyda hamisha o'lim va jazo bo'ladi». Asarda bunday ko'rimsiz manzarani, bunday fojiali holatni qayd etish bilangina cheklanmasdan u qattiq qoralanadi.

Mana shu bir birini istisno etadigan olam, ular orasidagi keskin ziddiyat, ularning o'zaro olishuvi; birinchi olamga nafrat va ikkinchi olamga muhabbat; yomonlikni qoralash va yaxshilikni ulug'lash, shu yomonlikka qarshi kurashga undash, uni yo'qotishga intilish, shu yaxshilikning tantanasini ta'min etishga chorlash asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu masalalarning barchasi yuksak badiy go'zal hikoyatu rivoyatlar, ajoyib umumlashmalar va hayratomuz hikmatli iboralar orqali ochiladi, tasvir etiladi.

Buning ustiga asarda falsafa va ilohiyotga oid murakkab masalalar haqida juda ko'p fikrlar bayon etiladi. Chunonchi, garchi odamning baxti va yo baxtsizligi osmondan, taqdirdan bo'lsada, lekin asosan baribir, odamning o'z harakati va intilishiga, aqli va irodasiga, mehnatni va qobiliyatiga bog'liqdir, degan fikr ilgari suriladi va hayotiy misollar bilan tasdiqlanadi. Asarni o'qiganda shunday tasavur paydo bo'ladiki, uni yaratganlar zo'r faylasuf va ulkan so'z sa'natkor bo'lganlar. Ular o'zlarining g'oyat g'azabli ham yumshoq tabiatli ekanliklarini namoyon qilganlar, hazil-mutoyiba va o'tkir tilli haqiqat himoyachilari ekanliklarini ko'rsatganlar.

Shuningdek «Kalila va Dimna» boshqa halqlar, jumladan, o'zbek halqi tarixida ham asrlar mobaynida g'oyat muhim ijobiy rol o'ynagan. U o'zining ajoyib g'oyalari va yuksak badiyligi bilan talabalar ongini oshirishda, badiy did hamda xissiyotini boyitishga yordam berdi. Qadimdan boshlab o'zbek halqining og'zaki va yozma adabiyotiga ta'sir ko'rsatib, ilg'or madaniyatining boyishiga muhim hissa qo'shdi. Buni biz o'zbek xalq ijodi namunalari va Navoiy, Gulxaniy, Hamza, kabi qator mumtoz shoirlarimizning ijodlarida yaqqol ko'ramiz.

O‘z davrining haqiqiy manzarasini aks ettirgan bu asar bugungi kun uchun ham juda qimmatli bo‘lib, talabalarda vatanparvarlik, yurtsevarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda jamiyatni yangicha taraqqiy ettirish davri davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan ekan, bu muhim jarayonda Yoshlar ittifoqining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Mustaqillik sharofati tufayli yoshlar tarbiyasiga tarbiyaning muhim omillaridan biri yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e‘tibor kuchaydi.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning o‘z yurtiga sodiq farzand ekanligini aks ettirish va shu asosida ularda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyyatini shakllantirish, o‘z yurtining mustaqilligini mustahkamlash uchun fidoiy insonlar, bunyodkorlarni tabiiyalashni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan shaxs insonparvarligini tarbiyalovchi faoliyatni rivojlantirish, yuksak aql-zakovat egasi bo‘lib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg‘ulari bilan yashash, axlokiy-huquqiy burchni, mas‘uliyatni teran anglashi lozim.

Mustaqillik kabi oliy ne‘matni mustahkamlash, Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun yoshlarning siyosiy-ma‘naviy faolligini oshirish, vatanparvarlik hoyalarini shakllantirish mazmunidan o‘rin olgan Vatan quvonchi, Vatan sevinchi, Vatan tuyg‘usi, Vatan faxri kabi tushunchalarni ular ongiga singdirish lozim. Buning ta‘lim muassasalarida o‘qituvchi talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini tashki etishda mustaqillik g‘oyasining mazmun-mohiyati tug‘risida ma‘lumot berar ekan, avvalo talabalarda vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, burch, mas‘uliyat, faxr, iftixor birligini tarbiyalashga harakat qilmog‘i zarur.

T.Qurbonovning “Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi” kitobida ham vatanparvarlikka to‘xtalib o‘tiladi, unda “vatanparvarlik”- vatan oldidagi mas‘uliyat va burchni anglash tushuniladi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo‘lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko‘p anglatilsa, kishilarda vatanparvarlik tuyg‘usi shuncha baland bo‘ladi. Har bir shaxsdagi vatanparvarlik tuyg‘usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Haqiqiy vatanparvarlik millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo‘lida mehnat qilish hamda kurashishdir”.

Vatanparvarlik tuyg‘usi nasldan naslga o‘tadigan, tug‘ma his-tuyg‘ular jamlanmasi emas, balki, tarbiya jarayonining mahsulidir. Vatanparvarlik vatan boyliklari-yu, go‘zal tabiatidan faxrlanishgina emas, balki uni yanada mukammalroq his qilish, shu zamin uchun ter to‘kish, xalqining farovon xayoti uchun o‘z manfaatidan yurtdoshlari manfaatini yuqori qo‘yish, vatan himoyasiga shay turish, xalq qadriyatlarini kelajak avlodlarga meros qilib qoldirishda o‘z hissasini qo‘shish bilan namoyon bo‘ladigan hatti-harakatlar majmuasidir. Shu bilan birga vatanga e‘tiqod vatanparvarlikni to‘ldirib, mukammallashtirib boruvchi dunyoqarashning bir bo‘lagidir. Chunki oliy ta‘limda tahsil olayotgan talabalar jamiyatda o‘zlarining munosib o‘rinlarini topishlari, Vatan ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qilishlari, fidoyilik ko‘rsatishlari, safarbarlik xislatlarini namoyon qila olishlari uchun ularda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish nihoyatda zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.

2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.
7. Ikromova Sitora Akbarovna. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 860–866.
8. Икромова Ситора Акбаровна. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 867–874.
9. Икромова Ситора Акбаровна. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 875–881.
10. Ikromova Sitora Akbarovna. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882–887.
11. Ikromova Sitora Akbarovna. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 888–893.
12. Икромова Ситора Акбаровна. (2024). ОСВОЕНИЕ ОСНОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 894–899.
13. Ikromova Sitora Akbarovna. (2024). МАТЕМАТИК TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING АНАМИЯТИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 900–905.
14. Икромова Ситора Акбаровна. (2024). ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 906–911.
15. Ikromova Sitora Akbarovna. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 912–917.
16. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 918–924.
17. Ситора , И. (2024). ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 925–932.
18. Ikromova , S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 933–939.
19. Sadridinovich, J. T. (2024). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL DATA IN ADOLESCENTS USING SPSS PROGRAM. *PEDAGOG*, 7(4), 266-272.

**TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH
TEXNOLOGIYALARI****Hamroev Kamol Qahramonovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari, shu jamiyatni qurishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan va unga sodiq, iymon-e'tiqodli, teran aql egasi, pok axloqli, o'z haq-huquqlari, burch va mas'uliyatini chuqur anglaydigan insonlarni tarbiyalash hamda vatanni sevish, ardoqlash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: vatan, yurt, millat, kelajak, yoshlar, ta'lim, tarbiya.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo'yicha burch tuyg'usini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Milliy istiqloq g'oyasi yoshlarni ma'naviyatli etib tarbiyalashning asosiy negizi sanaladi. Shuningdek, yoshlarni haqiqiy vatanparvar bo'lish, ona-Vatanga cheksiz mehr-muhabbatni qaror toptirish, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishda eng olijanob ishlarda faol qatnashishga undaydi.

Talaba shaxsini rivojlantirish, barkamol insonni voyaga yetkazishda ularning ma'naviy-axloqiy shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, millat va ona-Vatan oldidagi burch, mas'uliyatni teranroq anglashga harakat qiladi. Ya'ni, ma'naviy-axloqiy yetuklik shaxsdagi bunyodkorlik g'oyalarini yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan va komillikka yetaklaydigan aniq maqsaddir.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1981 yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shahri yoki qishlog'i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa, vatan tushunchasiga shunday ta'rif keltiriladi: Vatan - kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". Har qanday ishda vatanparvarlik hissi namoyon bo'lishi kerak. Darhaqiqat, vatan bir kishining mulki emas, u o'tib ketgan ajdodlar yurti, o'sib-ulg'ayayotgan farzandlarimiz, kelajakda dunyoga keladigan avlodlarning mulki - vatan shu yurtda yashab turgan har-birimizning mulkimizdir. Demak, yer yuzida millat uchun vatan mavjud ekan, xalqda vatan tuyg'usi doimo, barcha davrlarda mavjud bo'laveradi. Bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik o'z ona Vatani uchun jonbozlik ko'rsatishidir. Bunday jonbozlik esa yoshlarda ta'lim jarayonida singdiriladi.

Yangi O‘zbekiston davlati taqdirini o‘z qo‘liga olib, yangi hayot, jamiyat qurishga, kelajagini jahon hamjamiyatining uzviy bir qismi sifatida tashkil etishga kirishdi. Zahmatkash xalqimiz o‘zining fidoiy mehnati bilan dunyoda hech kimdan kam bo‘lmay, taraqqiy topgan mamlakatlar qatoridan o‘rin olib, tinch, farovon va osuda hayot kechirishga haqlidir. Lekin bu yo‘l juda murakkab yo‘l bo‘lib, u jamiyat a‘zolaridan fidoyilik, vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ulari ustuvor bo‘lishini talab qiladi. Buning uchun jamiyat hayotining ertangi kunini yaratadigan yoshlarda xuddi mana shu tuyg‘ularni shakllantirish zarur.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab, ijod etgan mutafakkirlar o‘z asarlarida yoshlar tarbiyasiga, vatanparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirishga alohida e‘tibor berganlar. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Muslihiddin Sadiy, Imom Ismoil al-Buxoriy kabi buyuk zotlar Vatan obodligi, yurt farovonligi uchun tinmay jonbozlik ko‘rsatganlar va o‘z zamondoshlarini ham shunga da‘vat qilganlar.

Istiqloq Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy va ma‘naviy takomilligining barcha sohalari rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga adabiyot va adiblar oldiga ulkan ma‘suliyatli vazifalarni qo‘ydi. O‘sib kelayotgan yosh avlod elim, yurtim deb yashashi, vatanimizning gullab-yashnashi buyuk kelajakka ishonch ruhida tarbiyalanishi ko‘p jihatdan ta‘lim-tarbiya jarayoniga bog‘liq. Ushbu ulkan ishlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi qonun va farmonlarga ko‘ra ta‘limning mazmuni va boshqaruvini milliy qadriyatlar, tarixiy, ma‘naviy tarbiyaga mos tarzda tanlash va tashkil etish zarurati qo‘yildi.

